

SHODIQL HAMRONING «HOVLIDAGI DARAXT» TIMSOLINIG SHAXS SIFATLARIGA EPITET BO`LIB KELISHI

Jabborova Malohat Valiyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi

Olimova Feruza Atoyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek va rus tillari kafedrası 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shodiqul Hamroning «Hovlidagi daraxt» hikoyasida, daraxt timsoli talqin qilinadi va undagi shaxslarning sifatlari o`rganiladi va atroflicha yoritiladi. Tabiatimiz sultoni bo`lmish daraxt obrazi orqali butun oila uchun muqaddas bo`lgan an`ana ,oilani birlashtirib turuvchi urf-odat va darxtning ramziy obrazlari ochib berildi. Tabiat va inson orasidagi mehr oqibatni ko`rsatib beruvchi poetik vositalar hamda an`analar inson va tabiat munosabati nuqtayii nazaridan o`rganildi,tahlilga tortildi.

Kalit so`zlar: Ziroat, zikr, Yashil makon, yashil saltanat, zar, ekalogiya, poetik obraz, Muxojir

Taniqli o`zbek yozuvchisi Shodiqul Hamroning «Qaqnus qanotidagi umr» asarining bir parcharchasi bo`lmish «Hovlidagi daraxt» hikoyasi hammaning qalbidan joy olib ulgurdi .Bu hikoya ramziy obrazlaraga boy.Hikoyada «Daraxt bobomning hassasidan ko`kargan» degan jumla bor.Bu hikoyada daraxt obrazi bir oilaning avloddan avlodga o`tib kelayotgan an`analar davomiyligi timsoli.An`analarni bir avloddan o`zidan keyin keladigan avlodga risoladagidek yetkazishi kerak.Aniqrog`i har bir odam o`z avlodiga munosib bo`lishi shart.Bu darxt boshqa daraxtlar kabi emasdi u eniga tarvaqaylab ketmagan, xuddi butalangandek qaddi tik, tanasi va shoxlari esa silliq edi .Bundan tashqari asardagi daraxt obrazi qadriyat timsoli hisoblanadi.Chunki, bu daraxt boboning hassasidan ko`karganidan so`ng bobo daraxtni to o`limiga qadar hurmat qilib qadrlaydi, hatto-ki bolalariga daraxtni e`zozlashni meros qilib qoldiradi. Uni asramagan insonni gunohkor deb hisoblaydi. Bu daraxt boshqa daraxtlarga qaraganda mo`jizaviy chunki, yilida ikki marotaba Bahor va Kuzda gullar edi. Ammo g`uj-g`uj gul ochib uning ustidan qushlar arimasada bu daraxt meva tugmasdi, shu sababli bu qanday darxt ekanligini hech kim bilmasdi, har kim o`zicha atar edi. Bola otasidan darxt nega meva tugmaydi deganida otasi: Mevami? Tugadi, o`g`lim.Mana men,sen,opang, singling va akang shu daraxtning mevalarimiz.

Ota bu daraxtni juda ardog`lardi. Shu sababli boshqa millat vakili bo`lgan ammo bir qishloqda turadigan Muxojir laqabli qo`shnisi daraxtdan payvandlik so`rab

kelganda rad javobini beradi. Bundan ko`einib turibdiki o`z qadriyatlarini o`zga millatga sotgisi kelmaydi. Yerdan qora va zax ketib, o`rniga quyoshning hovuri endi inayotgan payt borliqda uzulish, chor-atrof ruxsiz. Shunday kunlarni birida oqshomga yaqin shaharda o`qiydigan opam katta opam kirib keldi. Dafatan uni taniyolmay qoldik: u taqmiga uradigan tim qora sochlarini yelkasidan kestiribdi, egnida beli bo`g`ma, badaniga yopishib turagan, tizzadan keladigan oq mato. Tunda hamma uxlaganidan so`ng oyim otamga qizingiz sochini kestiribdi dedi, otam ko`rdim dedi va tarbiya berishda qayerda xato qildim dedi. Bundan ko`rinib turibdiki urf-odatlariga yana bir tomondan bolta urilm oqda ya`ni o`zbek millat qizlarida bo`ladigan iffat, hayo yo`qolib borib, chet el havosi kirib kelayotganidan dalolat beradi. Mana shunday kunlarda otam zax yerda uxlab qolib o`zini oldirib qo`ydi va shifoxonaga borishga majbur bo`ldi. Otam shu yerda ham darxtga e`tiborli bo`lishimizni uni asrashimizni ta`kidlar edi. Otam tuzalar-tuzalmas uyga qaytdi. Bir kun maktabdan qaytayotganimda Muxojirning qizini uchtarib qoldim, u menga endi bizning uyimizda ham sizlarnidek dataxt bo`ladi seni akangga zanjiri uzun eski cho`ntak soatini bergan edievaziga darxtlaringni shoxidan bir emas, uchta keltirib berdi, deb mahtandi, meni jahlim chiqqanidan qizni yuzidan chimchilab oldim va uyga yugurib xabarni birinchi bo`lib dadamga yetkazdim. Dadam buni eshitib juda yomon ahvolga tushdilar va akamni uydan haydab yubordilar so`ng, menga daraxtga chiqishimni buyurdilar, qarab ko`rsam rostdan ham daraxtdan uchta shox olingan, pishoq o`tmagan shekilli g`ajib olinganga o`xshardi. Otam o`rnidan turolmasada kelib daraxt ildizni kovladi ne ko`z bilan qarasaki daraxtga dori sepilgan ekan. Daraxtni ildizini tilib ko`rdi ozgina namlik bor ekan, otamning yuzida umid shulalandi. Oz bo`lsa-da hali vaqt bor ekan. Endi oyoqqa turishim kerak, -pichirladi u daraxt tomirlariga qarab. Bu holatdan ko`rinib turibdiki daraxt sog`lomligi oila qonida oqadigan qon, agar daraxt kasallansa oila ham daraxt kabi barbod bo`ladi. Ba`zan hayotda farzandlar orasida noqobili chiqib ota-ona boshini egik qilgani kabi asarda ham farzandlar orasida shunday chiqib daraxt shoxini kesadi va butun bir avlodni yo`qqa chiqaradi.

Islom dinida ziroatga alohida ehtirom bilan yondashilgan. Qur`oni karimda «daraxt» so`zi birlik shaklida, ko`plik shaklida esa 6 marotaba zikr etilgan. Zar (ekin o`tqazish, parvarish qilish, ishlov berish, o`simlik, so`zi va uning shakldoshlari 13 o`rinda keltirilgan). Shariatda daraxtga shunday e`tibor ko`rsatilganki, hatto, oxiratda solih amallar evaziga mukofot qilib daraxtlar hadya etilishi aytilgan. Jobir in Abdulloh roziyollohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh solollohu alayhi vasallam bunday dedilar: «Kim subhanollohi va bihamih», desa, uning uchun jannatda xurmo o`tqaziladi. Boshqa bir rivoyatlarda «Daraxt» deyilgan.

Shu o`rinda Omon Matjon «Yonayotgan daraxt» she`rida daraxt timsolini quyidagicha ta`riflaydi. Bu she`rda yonayotgan daraxt bu xalq.

Salobatli yashil saltanat edi,
Erkin qushchalarga zangor poyitaxt.
Uchqunlardek to`zitdi qushchalarni
Yonayotgan daraxt!

Bu misrada urush davri tasvirlangan. Salobatli yashil saltanat o`zbek millati, erkin qushchalar insonlar. Uchqunlardek to`zitdi g`unchalarmi. Bu misrada esa hali o`n gulidan bir guli ochilmagan bolalarning ota-onasidan ajrashi yoki uchqunlar ostida yosh go`daklarni nobud bo`lib olamdan ko`z yumushi tasvirlanadi.

O`zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-oktabr kuni «Yashil makon» loyihasini amalga oshirishga bag`ishlangan yig`ilishda daraxtlarning ahamiyati haqida gapirdi. Yashil makon nomiga emas, o`zimizning hayotimiz, o`pkamiz tozaligiga, jamiyatimizga, salomatligimizga, kerak bo`lsa g`ururimizga kerak «Yashil makon» millatimizga, mamlakatimizga ertangi kunimizga kerak. Kimdir kelib O`zbekistondagi ekologiyamizni to`g`rilab bermaydi. Kimdir kelib mahallamizga, Orol dengizni qurigan tubiga daraxt ekib bermaydi, hech qachon. Temir intizom va o`zimizning mehnatimiz natijasida pirovard maqsadga erishamiz. Har bir xonadonda bir yilda ikkitagina, tashkilotesa o`ntagacha ko`chat eksin, dedi prezident. «Men hurmat qiladigan va ishonadigan mahalla raislari bu masalaga jonkuyar bo`lishi kerak. Bu masaladga hech kim befarq bo`lmasligi kerak. Shunday muhit yaratishimiz kerakki, daraxtga bo`lgan munosabat uyimizdan, oilamizdan, nevaralarimizdan, farzandlarimizdan, jamiyatimizdan, mahallamizdan boshlasak, o`ylaymanki, yutuq, natija biz kutgandek bo`ladi», - dedi davlat rahbari.

Prezident tashabbusi bilan 2021-yil noyabr oyidan boshlab har yili 200 million tup daraxt ekish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Qadim zamonlardan beri daraxtlar ko`pincha muqaddas va hayotiy ahamiyatga ega bo`lib kelgan, bu hayot draxti dunyoning turli madaniyatlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi ajablanarli emas. Ramz har bir madaniyat uchun turli xil ma`nolarga ega bo`lsa-da u nimani ifodalashiga oid umumiy mavzular mavjud. Barchamizning sevimli adibimiz Iqbol Mirzo Go`yo sherida daraxtni quyidagicha tasvirlaydi.

Bir darxtni ko`rdim-mag`rur, barkamol,
Istalgan faslida gullaydiganday
Pisandiga yaqin kelmas qor, shamol:
Shul daraxtning oldida xor, g`aribman,
Yo`l yarmiga etar-etmas horibman,
Havodan kuz hidin olib turibman,
Bahor menga qaytib kelmaydiganday.

Bu she`rda daraxt obrazi orqali mashuqa tasvirlanyapti, ya`ni mag`rur va barkamol darxt bu yor darxt kabi tik qomatli, doimo go`zalligidan har faslda gulaagandek, uning oldiga hech bir inson yaqin kelolmas edi. Shul go`zalni ishqida men g`aribman, mashuqani oldiga yetar-yetmas horibman ya`ni men taslimman bu go`zalga men erisholmadim deyapti oxirgi misralarida.

Xulosa qilib aytaganda, daraxt obrazi orqali insonlarning butun hayoti tasvirlangan, ya`ni barchamizga ham ma`lum bizga Alloh taallo tomidan taqdim qilingan daraxtlar, o`simliklar va shu kabi ne`matlar orqali biz toza havodan nafas olamiz, shunday ekan biz mana shundan yashil makonni yanada ko`kalamzorlashtirib, go`zal tabiatda farovvon hayot kechirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Shodiqul Hamroyev. Qaqnus qanotidagi umr. Toshkent «O`zbekiston» 2016.- B.142-150
2. Omon Matjon. Yonayotgan daraxt. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`atnashriyoti 1997.- B 13-14
3. O`zbekistin Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Sipikiri Islov. Toshkent: 2021-yil 25-noyabr 1563-IV-son
4. O`zbekiston Musulmonlari Idorasi Samarqand viloyati vakilligi. 2024-yil 11-fevral
5. Ulug`bek Hamdam Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2002 6 Iqbol Mirzo Go`yo 2001-yil
6. Jiyanqulovna, Jo`rayeva Laylo. "TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI." THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 1.4 (2022): 39-43.
7. Jabborova M. THEORETICAL INTERPRETATION OF STUDENTS' ACADEMIC ACHIEVEMENT // Solution of social problems in management and economy. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 36-40.
8. Latifova, M. . (2024). O`ZBEK TILIDA QO`SHMA SO`ZLAR TADQIQI (RAVISH SO`Z TURKUMIGA OID QO`SHMA SO`ZLAR MISOLIDA). Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 3(1), 53–57. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/11411>